

**XALQARO OMMAVIY HUQUQDA SUDLAR TOMONIDAN
INVESTORLAR VA DAVLATLAR O'RTASIDA
QO'LLANILADIGAN ISBOTLASH TAMOYILLARI:
ISBOTLASH YUKI VA STANDARTLARI**

Umarova Xolisxon Nomoz qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi

xolisxonumarova3@gmail.com

Annotatsiya: Bir martalik savdo shartnomalaridan farqli ravishda, xorijiy investitsiya shartnomalari aksariyat hollarda investor va mezbon davlat o'rtasidagi uzoqroq muddatdagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday shartnomalarni tuzishda esa unda javobgarlik masalalarini oldindan belgilash, nizo kelib chiqqan taqdirda uni qanday vositalar va usullar bilan hal qilish mumkinligini kelishib olish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nega deganda, mahalliy darajada tuzilgan shartnomalarda nizolarni sudda hal etish bo'yicha sudlovlik va taalluqlilik masalalari bo'yicha milliy qonunchilikka tayansak, xorijiy element aks etgan shartnomalar bo'yicha shartnomada kelishilgan sudlovlik qoidalari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari bilan ham kelishimizga to'g'ri keladi. Quyidagi maqola orqali xalqaro ommaviy huquqda sudlar tomonidan investorlar va davlatlar o'rtasida qo'llaniladigan isbotlash tamoyillari, isbotlash yuki va standardlari bir necha amaliy misollar bilan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiya, isbotlash yuki, isbotlash standardlari.

**FAIR AND EQUAL TREATMENT IN INVESTMENT
ACTIVITIES: ITS INTERACTION WITH MINIMUM
STANDARDS AND CUSTOMARY LAW STATUS**

Umarova Kholiskhon Nomoz kizi

Student of Tashkent State University of Law

xolisxonumarova3@gmail.com

Abstract. Unlike one-time trade agreements, foreign investment agreements are distinguished by the fact that in most cases they are aimed at regulating long-term relations between the investor and the host country. When concluding such agreements, it is more important than ever to determine the issues of liability in advance, and to agree on the means and methods to resolve a dispute if it arises. Because when we rely on the national legislation on the issues of jurisdiction and applicability for resolving disputes in court in contracts concluded at the local level, in the contracts with international elements we shoul deal with international standards, jurisdiction and generally recognized principles. Through the following article, the principles of proof used by courts between investors and states in public international law, as well as burden and standards of proof are analysed with several practical examples.

Keywords: foreign investment, burden of proof, standards of proof.

O‘zbekiston Respublikasi amaldagi Fuqarolik kodeksining 1158-moddasi 2-qismida taraflarning huquqni tanlashga doir kelishuvi ochiq ifodalangan bo‘lishi yoki bevosita shartnomaga talablaridan va ishning ko‘rib chiqilayotgan barcha holatlaridan kelib chiqishi lozimligi belgilab qo‘yilgan. Xalqaro investitsiya nizolarining o‘ziga xosliklaridan yana biri shundan iboratki, an’anaviy xalqaro huquq doirasida investorlarda xorijiy davlatlarni ularning huquqlarini buzganliklari uchun javobgarlikka tortish maqsadida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga bera olmaydi. Ular avvalo o‘z mamlakatlarining diplomatik aloqalariga tayanadilar. Xalqaro doimiy adolat sudi (Permanent International Court of Justice)ning Movrammatis Falastin imtiyozlari bo‘yicha ishda bu holatni shunday izohlaydilar:

Xalqaro huquqning asosiy prinsipi shundaki, davlat o‘z subyektlarini boshqa davlat tomonidan sodir etilgan xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlari tufayli jabrlanganda, ular oddiy usullar orqali qoniqish ololmagan holatda himoya qilish huquqiga egadirlar. Davlat o‘z subyektlaridan birining ishini ko‘rib chiqib, uning nomidan diplomatik harakatlar yoki xalqaro sud jarayoniga murojaat qilish orqali haqiqatda o‘z huquqlarini – o‘z subyektlari huquqlari yuzasidan xalqaro huquq qoidalarga rioya qilishni ta’milnishini himoya qiladi.[1]

Xalqaro ommaviy huquqda isbotlashning huquqiy yukiga oid asosiy qoida “actori incumbit probatio” hisoblanadi. Unga ko‘ra, da’vo qilgan shaxs o‘z vajlarini isbotlab berishi darkor. Ushbu o‘rindagi “actor” so‘zi “nafaqat protsessual nuqtai nazardan da’vogarni, balki tegishli masalalar bo‘yicha da’vo qiluvchi haqiqiy da’vogarni anglatadi”.[2] Shunga ko‘ra, da’vogar o‘z da’vosining barcha elementlari bo‘yicha isbotlash yukini o‘z zimmasiga oladi. Agar javobgar bunga qarshi e’tirozlarini taqdim etsa, u o‘z e’tirozlariga asos

bo‘lgan holatlarni isbotlab berishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, har bir tomon o‘z da’vosi va himoyasi uchun asos bo‘lgan holatlarni isbotlash yukini o‘z zimmasiga oladi. Isbotlash yukini bajarmagan tomon tabiiyki, o‘z-o‘zidan isbotlay olmaslik oqibatlarini ham o‘z zimmasida qoldiradi. Chunki nizo o‘z tasdig‘ini topgan dalillarga asoslanib hal etilishi lozim.

Isbotlash yuki hamisha faqat bir tomonning yelkasidagi majburiyat bo‘lavermaydi. Bir tararaf ikkinchi tarafning fikrini inkor etyaptimi, demak, buning aksini isbotlash majburiyati ham ikkinchi tomonga o‘tadi. Shuningdek, javobgar tomonda o‘z vajlarini isbotlash majburiyati bilan bir qatorda, da’vogar taraf taqdim etayotgan dalillarni yoki faktlarni haqiqiyligiga e’tiroz bildirishi ham mumkin. Masalan, javobgar da’vo taqdim etgan xorijiy davlat investorining aslida imtiyozlarga erishish uchun xorijiy davlat fuqaroligini firibgarlik yo‘li bilan qabul qilib olganligini ta’kidlasa, bunday e’tirozini isbotlab berish majburiyati ham javobgarning zimmasida bo‘ladi.

Istoblash tamoyillarining birinchi bosqichi Investitsiya nizolarini hal qilish bo‘yicha xalqaro markaz (ICSID) da ishni ko‘rish uchun taqdim etish bosqichidan boshlanadi, deyish mumkin. Bu esa isbotlash yuki hali ish sudda mazmunan ko‘rib chiqilmasdan va hattoki ish yurituviga qabul qilinmasdan ham oldin yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, ICSID konvensiyasining 25-moddasiga ko‘ra, bir Ahdlashuvchi davlat va boshqa bir Ahdlashuvchi davlat fuqarosi bo‘lgan investor o‘rtasidagi investitsiyadan kelib chiquvchi har qanday nizoni agar tomonlar bunga yozma ravishga rozilik began bo‘lsa ko‘rib chiqishi belgilangan.[3] Bu esa da’vogar ishni ICSIDda ko‘rish uchun topshirgan taqdirda uning aynan ICSID yurisdiksiyasiga taalluqli ekanligini isbotlashi kerak bo‘lishini anglatadi. Bunda shu to‘g‘risidagi bitimi yoki shartnomaning maxsus bandlari isbotlash vositalari bo‘lib xizmat qilishi

mumkin. O‘zbekiston va Metal-Tech ishida ham O‘zbekston ushbu nizo ICSID yurisdiksiyasiga taallquli emasligini isbotlab bergani uchun ish ICSIDda ko‘rilmagan edi.[4]

Ta’kidlash joizki, har qanday e’tirozlar har doim ham isbotlashga muhtoj bo‘lavermyadi. Jumladan, isbotlash yuki qoidasi “sud uchun ma’lum faktlar” hamda “hamma uchun ma’lum faktlar”ga nisbatan qo‘llanilmaydi[5]. Ammo sudlar har doim ham ma’lumotlarni hammaga ma’lum deb topavermaydilar. Hammaga, shu jumladan sudyalarga ham ma’lum shunday faktlar ham bo‘ladiki, ularni bo‘lgan-bo‘lmasligini isbotlash shart emas [6]. Masalan, Covid-19 virusi tarqalishi munosabati bilan joriy etilgan karantin, 2011-yilda Yaponianing Xonsyu orolida bo‘lgan kuchli zilzila mana shunday holatlarga misol bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri, bunday holatlar ko‘p jihatdan mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, moritoriyalar e’lon qilinishga, eksport-import vaqtinchalik amalga oshirilmay turishiga, tadbirkorlik faoliyati sohalari o‘z faoliyatini to‘xtatib turishiga olib kelishi mumkin. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, bu kabi tabiiy ofatlar yoki boshqa turdagি ommaviy tadbirlar barchaga birdek ta’sir etmasligi, masalan, iqtisodiyotning qaysidir tarmoqlarida faoliyat davom ettirilishi mumkin. Shu boisdan hammaga ma’lum holatlar sodir bo‘lganlik faktini isbotlash majburiyati mavjud bo‘lmasada, nazarimizda bu faktlarning sudda ishi ko‘rilayotgan taraflarga qay darajada ta’sir etganlik faktini isbotlash majburiyati baribir o‘z ahamiyatini yo‘qotmay qolaveradi.

Isbotlash standardlari (Standards of proof) esa isbotlash yukini qanday vositalar orqali amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. U individual masalani yoki umuman tomonlar ishini aniqlash uchun zarur bo‘lgan umumiyl dalillar darajasini belgilaydi. O‘z mazmuniga ko‘ra, dalillar standardi iqtisodiy

protsessual qonunchiligidizning “dalillarning maqbulligi” qoidasiga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy protsessual kodeksning 72-moddasida belgilanishicha, qonunchilikka muvofiq muayyan dalillar bilan tasdiqlanishi kerak bo‘lgan ish holatlari boshqa dalillar bilan tasdiqlanishi mumkin emas.[7] Ya’ni agar isbotlash yukini o‘z zimmasiga olgan tomon uni isbotlash standardlari muvofiq ayni bir fakt bilan isbotlab beraolmasa uning talablari isbotlanmagan hisoblanadi.

Aslini olganda, an’anaviy ommaviy huquq faqat davlatlar o‘rtasida yuzaga kelgan nizolarni ko‘rar edi, investitsiya nizolari esa ommaviy huquqda individual tomonning – xorij investorlar va korporatsiyalarining ishtiroki bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Metal-Tech (Isroil Respublikasi) va O‘zbekiston ishi ICSID tarixida ikkinchi marta poraxo‘rlik tufayli qaytarilgan da’vo ishi hamda birinchi marta bunday talab shartnomadan kelib chiqqanligini qo‘llangan ishi edi. Ushbu ishda Metal-Tech kompaniyasini O‘zbekiston hukumati bir qancha jinoiy qilmishlarda ayblab unga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari qo‘llaydi. Metal-Tech kompaniyasi bunday vaziyatda Hukumatdan kompensatsiya to‘lovlarini olish uchun qilgan harakatlari foyda bermagach, ICSIDga murojaat etishga qaror qiladi. Lekin O‘zbekiston ICSID bunday ishni yurisdiksiyasiga qabul qilishi kerak emasligini da’vo qiladi. U keltirgan vajlarga ko‘ra, ikki tomonlama shartnomada investitsiya investitsiyani qabul qiluvchi davlatning qonunchiligiga muvofiq bo‘lishi kerakligi belgilangan.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, pora olish, berish va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyat hisoblanadi. Metal-Tech kompaniyasi esa 4 million AQSH dollarini konsalting-maslahatchilar uchun sarflagan. Shunga qaramay, maslahatchilarning hech biri aslida yetarli tajribaga ega bo‘lmay, ular orasida iste’fodagi tergovchi,

farmasevtika mutaxassisi, gazeta menajeri kabi metallurgiya sohasidan anchayin uzoq shaxslar bor edi. Buning ustiga ularga qilingan to‘lovlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularga berilmay, ushbu shaxslar egalik qiladigan Shvetsariya va Britaniya Virgina orollaridagi xolding kompaniyalar hisobiga o‘tkazib berilgan.[8]

Umaman olganda, ICSIDning pora bilan bog‘liq ishlarda isbotashning yuqori tamoyillari qo‘llashi ma’lum. Bu yerda sud korrupsiyani isbotlash qiyinligini tan olib, o‘z xulosasini O‘zbekiston hukumati keltirgan dalillardan kelib chiqib, Metal-Tech kompaniyasining yuzaga kelgan “shubhalar”ni tushuntirib bera olmasligiga asoslanib harakat qiladi. Bundan avval ham Siag va Misr o‘rtasidagi nizoda arbitor Fransisko Orrego Vikuna sudning ixtiyoriga “mos keluvchi shartli dalillardan” xulosa chiqarishga ruxsat beruvchi pastroq standartni qo‘llashni ilgari surgan edi.[9] Arbitrajning Metal-Tech va O‘zbekiston ishidagi yondashuvi ham aynan Vikunaning yondashuviga o‘xshaydi. Bu ish doirasida ham ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekistonning Metal-Tech da’vosiga qarshi e’tirozlarida isbotlash vositasi sifatida ikki davlat hukumatlari o‘rtasida tuzilgan shartnama assosiy rolni o’ynagan. 1994-yilda imzolangan Isroil Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatlari o‘rtasida investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va muhofaza qilish to‘g‘risidagi kelishuvning 1-moddasida investitsiyaga ta’rif berilayotganda sarmoya kiritiluvchi Ahdalashuvchi davlatda qonunlariga muvofiq amalga oshiriladigan har qanday mol-mulk “investitsiya” deb topilishi belgilab qo‘yilgan.[10] Aynan “qonunlariga muvofiq” deb belgilangan qoida ushbu ishni ICSID yurisdiksiga kirmasligi, chunki investor faoliyatida pora oldi-berdisi bilan shug‘ullanganligi sabab bo‘lgan. Ba’zi shartnomalarda bunday qoida bo‘lmaasligi ham mumkin. Masalan, O‘zbekistonning Gretsiya Respublikasi Hukumati bilan yoki Ozarbayjon Respublikasi Hukumati bilan tuzilgan ikki tomonlama investitsiya shartnomasida bunday qoida nazarda tutilmay o‘tilgan.

2021-yildagi UNCITRAL Arbitraj Qoidalarining 27-moddasi dalillarga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra, har bir tomon o‘z da’vosini yoki himoyasini qo‘llab-quvvatlash uchun asoslangan faktlarni isbotlash majburiyatini olishi belgilab qo‘yilgan.[11] Demak, har ikki tarafda ham isbotlash yuki mavjud bo‘lishi mumkin. Da’vogar o‘z da’vo asosini keltirsa, javobgar o‘z himoyasiga doir e’tirozlarini isbotlashiga to‘g‘ri keladi. Arbitraj muhokamasida har qanday vaqtda arbitraj sud taraflardan hujjatlar, dalillarni taqdim etishni talab qilishi mumkin. Shunday bo‘lsada, taqdim etilgan dalillar sud uchun oldindan belgilab qo‘yilgan kuchga ega bo‘lmaydi. Ushbu 27-moddaning 4-qismida ko‘rsatilganidek, arbitraj sudi taqdim etilgan dalillarni asosliligi, maqbulliligi, ishonchliligi va yetarliligi bo‘yicha baholaydi.

Isbotlash standardlari yuqorida ham ta’kidlab o‘tilganidek, dalillarning “vazniga” baho beradi. Milliy qonunchilik normalarida isbotlash standardalariga ishora qiluvchi turli normalar bo‘lishi mumkin. Biroq, arbitraj qoidalarida bunday normalar aks ettirilmaydi, ammo amaliyotda arbitorlar tomonidan dalillarni baholashda “dalillarning ustunligi” (preponderance of evidence) tamoyilidan foydalanadi.[12] Manbalarda keltirilishicha, agar faktning haqiqat ekanligi ehtimoli uning haqiqat emasligi ehtimolidan ustun keladigan bo‘lsa, bu fakt isbotlangan hisoblanadi. Ya’ni da’vo taqdim etuvchilar da’voning to‘g‘ri ekanligiga kamida 50 foizdan ko‘proq imkoniyat mavjud ekanligiga arbitraj sudini ishontira olsalar isbotlash yuki bajarilgan deb hisoblasnishi mumkin. Metal-Tech va O‘zbekiston ishida bo‘lgani kabi korrupsiyaviy holatlar bilan bog‘liq vaziyatlarda “qizil bayroqlar” ishlatiladi. Yetkazilgan zarar masalasiga keladigan bo‘lsak, bunday masalada asosan ikki xil fakti isbotlash kerak bo‘ladi: zarar yetkazilganlik faktini va uning miqdorini. Oldindan belgilangan zararlar (liquidated damages)da esa zarar shartnomada avvaldan kelishib qo‘yilganligi uchun zararni qayta hisoblash shart emas bo‘lib, zarar

yetkazganlik fakti isbotlanishining o‘zi yetarli hisoblanadi. Zarar yetkazilishining o‘rni kompensatsiya qilinishi lozimligi asosi sifatida davlatlar o‘rtasida tuzilgan ko‘p tomonlama investitsiya shartnomalari (MIT), ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (BIT) va investitisiya kelishuvlari (investment agreements)ni keltirib o‘tish mumkin. Masalan, 1996 yilda Ozarbayjon Respublikasi Hukumati va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida imzolangan investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi bitimning 6-moddasida Investitsiyalari boshqa Ahdlashuvchi tomon davlati hududida sodir bo‘lgan urush yoki boshqa qurolli to‘qnashuv, revolyusiya, favqulodda holat, to‘ntarish, fuqarolar tartibsizliklari yoki shunga o‘xshash hodisalarda zarar ko‘rgan bir Ahdlashuvchi tomon davlati investorlariga mazkur Bitim 4-modda 1, 2, 3-bandlari shartlariga muvofiq ko‘rilgan zarar uchun kompensatsiya, restitusiya, qoplash yoki boshqa qiymat to‘lovlari beriladi, degan norma keltirilishi kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar undirish bilan bog‘liq nizolarda da’vo asosi bo‘lishi ham mumkinligi[13] qayd etilganligi nizolashuvch tomonlar uchun da’vos asosi bo‘lib hisoblanishi mumkin.

Xalqaro ommaviy huquqda investor va davlat o‘rtasidagi investitsiya nizolarida isbotalsh tamoyillari, isbotlash yuki va standardlarini yanada yaxshiroq tadqiq qilish uchun quyidagi sud ishi tahlilini (case-study) amalga oshiramiz:

Mazkur nizo da’vogarning O‘zbekiston hududida joylashgan “Bekobodsement” AJ va “Quvasoy cement” AJ kompaniyalaridagi manfaalari yuzasidan taqdim etilgan. Taraflar sifatida da’vogar Vladislav Kim boshchiligidagi jami 12 kishi (Qozog‘iston Respublikasi) hamda javobgar

sifatida O‘zbekiston Respublikasi hukumati ishtirok etadi. O‘zbekiston hukumati da’voni rad etish uchun o‘zining 4ta e’tirozini sudga taqdim etadi:

Birinchidan, da’vogarlardan ikkitasi Qozog‘iston Respublikasining fuqarosi bo‘lmagan, chunki ular boshqa davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlarida ishlaganligi bois Qozog‘iston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan bo‘lishi kerak. 1997 yilda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Qozog‘iston Respublikasi Hukumati o‘rtasida tuzilgan investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi bitimga ko‘ra, faqat Qozog‘iston Respublikasi fuqarolari hisoblangan investorlargina sudga da’vo kiritishi mumkin. Negaki, ushbu bitimning birinchi moddasi 5-qismida “fuqaro” deganda Ahdlashuvchi davlatlarning fuqaroligiga va huquq layoqatiga ega bo‘lgan hamda Ahdlashuvchi tomonlarnimg birida investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanadigan shaxslar tushinilishi belgilangan. Ammo sud ta’kidlaganidek, fuqarolik bu Qozog‘iston Respublikasi o‘z ichki qonunchiligi bo‘yicha hal etishi kerak bo‘lgan masala. Da’vogarlarning ta’kidlashicha, milliy qonunchilikda jismoniy shaxs Qozog‘iston hukumati tomonidan uning fuqaroligi tugatilgunga qadar Qozog‘iston Respublikasi fuqarosi bo‘lib qolishini aniq ko‘rsatuvchi qo‘sishimcha tegishli qoidalar, jumladan 12-sonli qaror va “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunning 30 va 37-moddalari mavjud. Binobarin, da’vogarlarning ta’kidlashicha, Qozog‘istonda istiqomat qiluvchi shaxslarning Qozog‘iston fuqaroligi borligini aniqlash faqat Ichki ishlar idorasiga berilgan. Bundan tashqari, da’vogarlarning ta’kidlashicha, Qozog‘iston fuqaroligi faqat uning yo‘qolganligi tegishli tartibda rasmiylashtirilgan kundan boshlab tugatiladi. Shu boisdan, ikkala da’vogar ham pasportlarini taqdim etish orqali “prime facie” – Qozog‘iston fuqarosi ekanligi ko‘rsatilgan. Barcha da’vogarlar o‘zlarining qozoq millatiga mansubligini tasdiqlovchi hujjat sifatida Qozog‘iston pasportini taqdim etgan.

Ikkinchidan, javobgarning keltirgan e'tiroziga ko'ra, da'vogarlar investitsiya kiritgan investorlar hisoblanmaydilar. Javobgarning ta'kidlashicha, "investor" atamasi passiv emas, balki investitsiya bilan faol munosabatni o'z ichiga oladi. Javobgar, masalan, yuqorida bitimning ba'zi bandlarida "investorlar tomonidan kiritilgan investitsiyalar" formulasidan foydalanishini ta'kidlaydi. Ammo da'vogar ta'kidlaganidek, shartnomada investitsiyani amalga oshirish shakli aniq ko'rsatilmagan. Shu boisdan uni aktiv yoki passiv amalga oshirilayotganligini baholab bo'lmaydi.

Javobgarning uchinchi e'tirozi investitsiyaning qonuniyligi bilan bog'liq bo'lib, javobgar bitimning 1-moddasida ko'rsatilganidek investitsiya mezbon davlatning qonunchiligi bilan kelishmagan. Ammo da'vogarning O'zbekiston huquqi bo'yicha eksperti va O'zbekiston Respublikasida ekspertiza bo'yicha katta yuriskonsulti, professor Uilyam Batler o'zining ikkinchi ekspert hisobotida "qonunlar" atamasining O'zbekiston huquq tizimidagi qo'llanish doirasi haqida fikrlari ham isbotlash vositasi sifatida taqdim etilganligi inobatga olingan.

To'rtinchi e'tiroz sifatida javobgar tomonidan da'vogarlar investitsiya faoliyatida korrupsiya aralashtirganlikda ayblanadi. Da'vogarlar 2 million AQSH dollarini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 211-moddasida taqiqlangan jinoiy yo'l orqali fuqaro X ga, 3 million AQSH dollarini fuqaro XX ga o'tkazib bergen. Javobgar o'z e'tirozini tasdiqlovchi dalillarning markaziy qismi sifatida da'vogarlarning X xonim va janob XX bilan da'vo qilingan munosabatlariga nisbatan ma'lum "qizil bayroqlar"ni aniqlaydi. Javobgarning qo'shimcha qilishicha, da'vogarning so'rالgan hujjatlarni taqdim etmasligi sudning korrupsiya mavjudligi to'g'risida salbiy xulosalar chiqarishini qo'llab-quvvatlashi kerak. Da'vogarlarning ta'kidlashicha, qizil bayroqlarning mavjudligi firibgarlik tekshiruvchisiga gipotezani shakllantirishda yordam

berishi va uning tergoviga yo‘naltirilishi mumkin. Biroq qizil bayroqlar firibgarlik yoki korrupsiyaning haqiqiy dalili bo‘laolmaydilar. Bundan tashari yuqorida sanab o‘tilgan “bayroqlar”ning aksariyati MDH mintaqasidagi biznes muhitida tranzaksiyalarning normal xususiyatlari hisoblanadi. Pora oldi-berdisi borasidagi javobgar e’tirozlariga ham da’vogar e’tiroz bildiradi. Ya’ni javobgar keltirib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasining 211-mddasining maxsus subyekti “mansabdor shaxslar” bo‘lib, X xonim garchi tegishli davrdan oldin ham keyin ham mansabdor lavozimlarda ishlagan bo‘lsada, aksiyalarni qabul qilib olish davrida bunday lavozimlarda ishlaganligi borasida qaydlar mavjud bo‘lmagan. Shunday qilib ICSID javobgarning barcha 4 ta e’tirozini ham rad etadi. Negaki, uning hech bir e’tirozi o‘z tasdig’ini topmagan, yetarlicha isbotlab berilmagan.[14]

Umuman olganda, huquqiy adabiyotlarda xalqaro investitsiya huquqida quyidagilar nizolashuvchi tomonlar uchun dalillar, shu bilan birga da’vo asosi bo‘lib ximat qilishi mumkinligi ta’kidlanadi:

- Xalqaro huquqiy hujjatlar
- Ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar
- Davlatlarning milliy qonunchiligi
- Minimal standartlar.

Davlatlar o‘rtasida tuzilgan ikkitomonlama xalqaro shartnomalarning, davlatlar milliy qonunchiligining dalil sifatidagi ahamiyatini yuqoridagi case-study orqali ham ko‘rishimiz mumkin. Ko‘p tomonlama shartnomalar, xalqaro huquqiy hujjatlar va minimal standardlar borasida esa UNCITRAL va NAFTA qoidalari misol bo‘la oladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro

Savdo huquqi bo'yicha komissiyasi – UNCITRAL Arbitraj qoidalari-2021 ning 31-moddasida arbitraj muhokamasi agar tomonlarda qo'shimcha dalillar yoki guvohlar bo'lmasa yopiq deb e'lon qilinishi keltirib o'tilgan.[15] Bu esa dalillarni taqdim etish sud tomonidan cheklanmasligini, aksincha, dalillarni taqdim etishga sud barcha uchun teng sharoit yaratib berishi lozimligini anglatadi. Shimoliy Amerika Erkin Savdo Shartnomasi – NAFTA ning 11-bobi esa aynan "Investitsiya"ga bag'ishlangan bo'lib, 1105-moddasiga asosan, har bir tomon boshqa tomon investorlarining investitsiyalariga xalqaro huquqqa muvofiq tartibni, shu jumladan adolatli va teng rejimni, to'liq himoya va xavfsizlikni ta'minlaydi.[16] To'liq himoya va xavfsizlik xalqaro investitsiya huquqining prinsiplari bo'lib, xalqaro investitsiya shartnomalari bir qancha umumiyligi va maxsus minimal standardlarni o'zida mujassam etadi. Umumiy prinsiplar adolat va tenglik, to'liq himoya va xavfsizlik, eng qulay shartlar rejimi, diskreminatsiyadan himoyalanish, favqulodda yo'qotishlar uchun kompensatsiyalash kabi hamda ekproportiatsiya, huquqlar o'tkazilishi kabi boshqa maxsus huquqlar bo'lishi mumkin va bular ham da'vo asosi bo'lib xizmat qilaoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro ommaviy huquqda davlatlar va investorlar o'rtasidagi nizolarda xalqaro huquq elementlari mavjudligi bois xalqaro huquqiy normalarni qo'llash, sudlovlik masalalarida avvalo shartnomalar shartlariga murojaat etishga to'g'ri keladi. Milliy yurisdiksiya sudlarida bo'lgani kabi xalqaro sudlarda ham investitsiya nizolarida isbotlash yoki taraflar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, har qaysi tomon o'zi keltirayitgan vajlarni isbotlashi kerak. Bunday isbotlash vositalariga xalqaro hujjatlar, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar, investitsiya shartnomalari yoki xalqaro hujjatlarda aks ettirilgan minimal standardlar misol bo'lib, UNCITRAL qoidalari muvofiq, sud kerakli hujjatlarni talab qilib olish huquqiga ham ega

hisoblanadi. Isbotlash yuki bilan chambarchas bog‘liqlikda isbotlash satndardlari ham xalqaro ommaviy huquqda nizolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan vosita bo‘lib, u muayyan dalillarning ish uchun ahamiyatlik darajasini belgilab beradi. Yuqorida keltirib o‘tilgan case-study tahlili orqali ko‘rsatib o‘tilgan misollar isbotlash yuki va standardlari bo‘lib, ICSID kabi xalqaro arbitraj sudlari nizolarni hal etishda taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillarni qay tarzda baholashi mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi. Chunki xalqaro huquqda ham hech qaysi dalil muqarrar kuchga ega bo‘lishi to‘g‘rsida qoidalar mavjud bo‘lmay, sudlar dalillarni UNCITRAL qoidalarida belgilangani kabi ishonchliligi, ahamiyatligi, muvofiqligi va yetarliligi bo‘yicha baholaydilar.

Xalqaro investitsiya huquqi rivojlanib borar ekan, kun kelib bugungi kundagi isbotlash vositalari o‘rnini boshqa vositalar ham egallashi, isbotlash standardlari o‘zgarishi, nizo turlari yangilanishi yoki eskirishi yuz berishi ham mumkin. Shu boisdan, isbotlash vositalarini toraytirilgan talqin qilib bo‘lmaydi. Chunki shu kunga qadar isbotlash vositasi sifatida qo‘llanilmagan biror dalildan foydalanish keyinchalik hal etilishi mumkin bo‘lgan nizolarda pretsedent vazifasini o‘tab qolishi mumkinligi ehtimolini ham butunlay inkon etib bo‘lmaydi.

Adabiyotlar / References:

1. Principles of International Investment Law. Rudolf Dolzer and Christopher Schreuer. 2008. P.211
2. Burden and Standards of proof. Vischer AG.
<https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=37bcab98-af79-4e83-b71a-0bddde3a02de9>
3. Convention on settlement of investment disputes between states and nationalsof other states. March 18, 1965.
4. Michael A.Losco. Charting a new course: Metal-tech v. Uzbekistan and the treatment of corruption in investment arbitration. Duke Law Journal. Volume 64. November 2014.
5. Burden and Standards of proof. Vischer AG.
<https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=37bcab98-af79-4e83-b71a-0bddde3a02de9>
6. Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishda isbotlash va dalillar. Monografiya. Esonova. Xabibullayev.I.Salimova.Toshkent-2015. 14-bet.
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi. 01.04.2018.
8. Michael A.Losco. Charting a new course: Metal-tech v. Uzbekistan and the treatment of corruption in investment arbitration. Duke Law Journal. Volume 64. November 2014.
9. Waguih Elie George Siag and Clorinda Vecchi v. The Arab Republic of Egypt, ICSID Case No. ARB/05/15
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Isroil Davlati Hukumati o‘rtasida Investitsiyani o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi bitim. 4 iyul. 1994
- 11.UNCITRAL Arbitration Rules (2021). United Nations. Vienna,2021

12.The investment Treaty arbitration Review: Evidenca and Proof. Martin Wiebecke. Anwaltsburo Wiebecke. 14 June 2022

[https://thelawreviews.co.uk/title/the-investment-treaty-arbitration-review/
evidence-and-proof](https://thelawreviews.co.uk/title/the-investment-treaty-arbitration-review/evidence-and-proof)

13.O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Ozarbayjon Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risida bitim. 1996 yil 27 may. Boku.

14.Vladislav Kim and others v.Respublic of Uzbekistan. (ICSID case No.AR/13/6)

15.UNCITRAL Arbitration Rules (2021). United Nations. Vienna,2021

16.North Amrica Free Trade Agreement. December 17, 1992